


## KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Dastlabki ma'lumotlar

Joriy yilning yanvar–sentyabrida 30 mingdan ortiq kichik biznes (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) sub'yektlari tashkil etildi yoki 2016 yilning shu davriga nisbatan 132,4 foizga ko'paydi.



Eng ko'p kichik biznes sub'yektlari sanoat tarmog'ida (26,8%), savdo sohasida (20,4%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (13,9%) va qurilishda (9,9%) tashkil etilgan.

### 2017 yilning yanvar–sentyabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan:

– 14488,8 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 36,6 foizi) o'zlashtirildi va 2016 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o'sish sur'ati 99,7 foizni tashkil etdi;



– 16861,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 67,0 foizi) bajarildi va 2016 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o'sish sur'ati 102,2 foizni tashkil etdi;



– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 40854,9mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 41,2 foizi) yoki 2016 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 100,4 foizni tashkil etdi;

– 43418,5 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (respublika jami xizmatlar hajmining 56,2 foizi), 2016 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 98,6 foizni tashkil etdi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 88,9 foizi yoki 67880,5 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 3,1 foiz) shakllantirildi;

– 2672,4 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 25,8 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 4688,7 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 48,9 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;



– avtomobil transporti yuk aylanmasining 4,9 foizga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 86,3 foizi), yo`lovchi aylanmasining esa 5,2 foizga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 93,4 foizi) ko`payishi ta`minlandi;



– 10514,1 ming nafar kishining bandligi ta`minlandi (jami iqtisodiyotda band bo`lganlarning 77,8 foizi), shu jumladan band bo`lganlarning 8381,1 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkorlar, 2133,0 ming nafari kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri keldi.

**2017 yilning yanvar–sentyabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 54,6 foizga, o`zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 36,6 foizga, sanoatda 41,2 foizga, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida 98,5 foizga, qurilishda 67,0 foizga, chakana tovar aylanmasida 88,9 foizga, xizmatlar sohasida 56,2 foizga, eksportda 25,8 foizga va bandlikda - 77,8 foizga yetgan.**

## Hududlar bo'yicha yanvar–sentyabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi

2017 yilning yanvar–sentyabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi Jizzax viloyatida yuqori darajaga yetib, 75,5 foizni tashkil etdi. Shuningdek, bu ko'rsatkich Andijon viloyatida – 71,2 foizni, Samarqand viloyatida – 71,0 foizni va Surxondaryo viloyatida 70,6 foizni tashkil etdi.

Namangan, Qashqadaryo, Sirdaryo, Xorazm, Buxoro, Farg'ona, Toshkent viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida kichik biznes va

xususiy tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 51-69 foizlar oralig'ida bo'lib, o'rta darajani qayd etdi. Shu bilan birga, past darajada qolayotgan Navoiy viloyatida bu ko'rsatkich 41,5 foizni tashkil etdi (1 jadval).



1 jadval

## Hududlar bo'yicha yanvar–sentyabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi

foizda

	yillar		O'zgarishlar (+;-), f.b.
	2016 y.	2017 y.	
Jizzax viloyati	75,3	75,5	+0,2
Andijon viloyati	76,8	71,2	-5,6
Samarqand viloyati	71,6	71,0	-0,6
Surxondaryo viloyati	69,6	70,6	+1,0
Buxoro viloyati	69,1	68,8	-0,3
Namangan viloyati	67,6	67,0	-0,6
Sirdaryo viloyati	65,5	65,7	+0,2
Xorazm viloyati	68,4	65,6	-2,8
Toshkent shahri	66,6	64,2	+2,4
Toshkent viloyati	61,8	60,7	-1,1
Farg'ona viloyati	61,4	60,2	-1,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	54,7	51,9	-2,8
Qashqadaryo viloyati	51,7	51,0	-0,7
Navoiy viloyati	42,0	41,5	-0,5

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish  
statistikasi boshqarmasi

Mas'ul:

Ravshanov O.  
(71) 230-80-75